

BO'LIB O'TGAN SAYLOVLARDA SO'X TUMANIDAN 97 FOIZ SAYLOVCHI ISHTIROK ETDI



Bo'lib o'tgan saylovlarda So'x tumanidan 97 foiz saylovchi ishtirok etdi

So'x tumanida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Xalq deputatlari xududiy Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida jami 1 ta viloyat okrugi hamda 5 ta tuman Kengashi deputatligiga saylov o'tkazuvchi, jami 30 ta saylov uchastkasi tashkil etildi. Shundan 2 tasi maxsus saylov uchastkalaridir.

So'x tumanida 84 176 nafar aholi istiqomat qiladi, saylash huquqiga ega bo'lgan fuqarolar soni 41 040 nafarni tashkil etadi.

Shundan:

Bir joyda (uyida) yotgan bemorlar soni 496 nafar, ko'zi ojizlar 46 nafar, birinchi marta ovoz beruvchilar 2 803 nafar, shundan 18-yoshga to'lgan saylovchilarning soni 1 358 nafarni, chetda yurgan ovoz beruvchilar soni 4 108 nafarni tashkil etadi.

Tumandagi jami 30 ta saylov uchastkalarining 25 tasi umumta'lim maktablarida, 1 tasi musiqa va san'at maktabi binosida,

1 tasi bolalar va o'smirlar sport maktabi binosida, 1 tasi madaniyat bo'limi binosida tashkil etildi.

Sektorlar kesimida tashkil etilgan saylov uchastkalari:

1-sektor hududida - saylovchilar soni 8 226 nafar, saylov uchastkalari soni 6 ta. Barcha saylov uchastkalari umumta'lim maktablari binosida joylashgan.

2-sektor hududida - saylovchilar soni 15 190 nafar, 1 saylov uchastkalari soni 10 ta, shundan 8 tasi maktablarda, 1 tasi musiqa va san'at maktabi binosida, 1 tasi madaniyat bo'limi binosida joylashgan.

3-sektor hududida - saylovchilar soni 7 332 nafar, sektorda 6 ta saylov uchastkasi mavjud bo'lib, shundan 5 tasi maktablarda, 1 tasi harbiy qism binosida joylashgan.

4-sektor hududida - saylovchilar soni 10 992 nafar, hududda 8 ta saylov uchastkasi mavjud bo'lib, shundan 6 tasi maktablar, 1 tasi bolalar va o'smirlar sport maktabi binosida, 1 tasi harbiy qism binosida joylashgan.

Bo'lib o'tgan saylovlarda So'x tumanidan 39 683 nafar saylovchi, yoxud 97 foiz ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqaro ishtirok etdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-10-29 15:12:49